“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=388

2026-yil
9-son
sentabr
ISSN 3093-8546



Shaxsni salbiy tavsiflovchi baholashning lingvistik mohiyati

Shahboz Zarmasov,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi ilmiy-metodik ta’minot bo‘limi boshlig‘i,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD
e-mail: zarmasov.sh@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada shaxsni salbiy tavsiflovchi baholashning lingvistik mohiyati tahlil qilinadi.Tadqiqotda “haqorat”, “kamsitish” va “tahqirlash” tushunchalarining o‘zaro semantik hamda pragmatik munosabatlari yoritilib, ularning differensial va integral belgilari aniqlanadi. Shuningdek, insonni kamsituvchi baholashning baholovchi, emotsional va ijtimoiy-pragmatik xususiyatlari ochib beriladi. Maqolada kamsituvchi baholash shaxs qadr-qimmatini pasaytirishga qaratilgan nutqiy ta’sir shakli sifatida talqin qilinib, uning sud-lingvistik ekspertiza uchun muhim nazariy va amaliy jihatlari ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida shaxsni salbiy tavsiflovchi baholash tilning nominativ emas, balki kuchli aksiologik va pragmatik qatlamiga mansub hodisa ekani asoslanadi.

Калит сўзлар. haqorat, kamsitish, tahqirlash, salbiy baholash, kamsituvchi baholash, pragmatika, semantika, sud-lingvistik ekspertiza, qadr-qimmat, nutqiy ta’sir.

Аннотация. В данной статье анализируется лингвистическая сущность характеристика отрицательной оценки личности. В исследовании освещаются взаимосвязи между понятиями «оскорбление», «унижение» и «глумление» на семантическом и прагматическом уровнях, а также определяются их дифференциальные и интегральные признаки. Кроме того, раскрываются оценочные, эмоциональные и социально-прагматические характеристики унизительной оценки человека. В статье унизительная оценка интерпретируется как форма речевого воздействия, направленная на умаление чести и достоинства личности, и демонстрируются ее важные теоретические и практические аспекты для судебно-лингвистической экспертизы. В результате исследования обосновывается, что негативно-характеризующая оценка личности принадлежит не к номинативному, а к выраженному аксиологическому и прагматическому ярусам языка.

Ключевые слова. оскорбление, унижение, глумление, негативная оценка, дискриминационная оценка, прагматика, семантика, судебно-лингвистическая экспертиза, честь и достоинство, речевое воздействие

Annotation. This article analyzes the linguistic nature of negative characterological evaluation of personality. The study highlights the semantic and pragmatic interrelationships between the concepts of “insult”, “humiliation” and “degradation”, identifying their differential and integral features. Furthermore, it reveals the evaluative, emotional, and socio-pragmatic characteristics of derogatory evaluation of an individual. Derogatory evaluation is interpreted as a form of speech impact aimed at undermining personal honor and dignity, highlighting its crucial theoretical and practical implications for forensic linguistic expertise. As a result of the study, it is substantiated that negative characterological evaluation of personality belongs not to the nominative, but to the pronounced axiological and pragmatic levels of language.

Keywords. insult, discrimination, humiliation, discrimination, negative evaluation, discriminatory evaluation, pragmatics, semantics, forensic linguistic expertise, honor and dignity, speech impact (verbal influence

Shaxsni salbiy tavsiflovchi munosabatning o‘ziga xos shakli sifatida “insonni kamsituvchi baholash” tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur baholash shaxsning ijtimoiy, axloqiy yoki intellektual qadr-qimmatini pasaytirishga qaratilgan bo‘lib, uning lingvistik mohiyatini aniqlashda “kamsitish”, “tahqirlash” va “haqorat” tushunchalarining o‘zaro aloqadorligi alohida o‘rin tutadi. Bu tushunchalarning chegaralarini belgilash sud lingvistik ekspertiza jarayonida salbiy baholovchi nutq birliklarining mazmuni hamda lingvistik va pragmatik xususiyatlarini aniq tahlil qilish imkonini beradi.

Kamsitmoq[1] fe’li qadr-qimmatni pasaytirmoq; past, arzimas yoki aybli qilib ko‘rsatmoq, yerga urmoq ma’nolarini anglatadi. Shundan kelib chiqib, kamsitish tushunchasi shaxsga nisbatan salbiy munosabatning amaliy va ijtimoiy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Kamsitish shaxsning ma’lum bir guruhga (irqi, jinsi, yoshi, dini, jismoniy nuqsoni va h.) mansubligi sababli unga nisbatan mensimaslik yoki adolatsiz munosabatda bo‘lishidir. Shu o‘rinda, ushbu tushunchaning haqorat va tahqirlash kabi chegaradosh tushunchalardan farqli jihatlarini lingvistik ekspertiza tadqiqotlari doirasida tahlilga tortish muhim sanaladi.

Zamonaviy tilshunoslikda “haqorat” va “kamsitish” tushunchalarining semantik mazmunini ularga ma’no jihatidan bog‘liq bo‘lgan *“ranjish”, “sharaf”, “sha’n” “qadr-qimmat”* kabi tushunchalar bilan qiyosan tahlil qilish masalasi A. Sannikov tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Olim ushbu tushunchalar o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilib, haqorat sharafga putur yetkazish bilan, kamsitish esa qadr-qimmatga putur yetkazish bilan

bog‘liqligini ta’kidlaydi[2].

I. Levontina mazkur leksik birliklar o‘rtasidagi munosabatlarni biroz boshqacha talqin qiladi. Uning fikriga ko‘ra, haqorat ham, kamsitish ham insonning o‘z-o‘zini hurmat qilishiga tajovuz qiladi, biroq haqorat har doim ham shaxsning sha’niga bevosita putur yetkazmaydi. Aksincha, u inson uchun muhim bo‘lgan, qadriyat sifatida e’tirof etiladigan jihatlarga daxldor bo‘ladi. Shu bois, shaxsga nisbatan bildirilgan har qanday salbiy fikrni avtomatik tarzda haqorat sifatida baholab bo‘lmaydi. Haqorat deb topish uchun bildirilgan fikr shaxsning qadr-qimmatini kamsituvchi ochiq, odobsiz (uyatsiz) hamda haqoratli shaklga ega bo‘lishi shart” [3].

Ushbu nazariy yondashuv haqorat hodisasining lingvistik va kommunikativ belgilarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, haqorat tushunchasining mazmunini lug‘aviy hamda huquqiy jihatdan izohlash maqsadga muvofiqdir.

Haqorat[4] – kishining or-nomusi va shaxsiyatini kamsituvchi, uni tahqirlovchi mazmunni ifodalovchi nutqiy birlik, muomala yoki xatti-harakatdir. Haqorat qilmoq, ya’ni haqoratlamoq, kimsaning sha’niga tegadigan so‘z yoki iboralarni qo‘llash, shuningdek, haqorat mazmunini ifodalovchi xatti-harakatlarni sodir etishni anglatadi. Shu bois haqorat boshqa shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitishga qaratilgan salbiy baholovchi nutqiy tajovuz sifatida baholanadi[5]. Mazkur ta’rif haqoratning mohiyatini yanada aniqroq belgilashga xizmat qiladi, biroq ushbu tushuncha nafaqat lug‘aviy, balki normativ-huquqiy nuqtayi nazardan ham izohlanishi lozim.

Haqorat tushunchasi amaldagi kodekslar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda batafsil sharhlanmagan. Shu bois huquqshunoslikda u, odatda, “nomaqbul shakl”da ifodalangan kamsituvchi munosabat sifatida talqin qilinadi. Haqorat axloq nuqtayi nazaridan, sha’n va qadr-qimmatni kamsitishning eng murosasiz, chidab bo‘lmas shakllaridan biri hisoblanadi[6]. K. Brinevning ta’kidlashicha, “yuridik jihatdan haqorat – shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish bo‘lib, u “nomaqbul shakl”da ifodalanadi”[7]. Mazkur yondashuvga ko‘ra, “nomaqbul shakl”, boshqacha aytganda, “beodob shakl” tushunchasining sud lingvistik ekspertiza doirasidagi mazmunini ilmiy jihatdan aniqlashtirish muhim nazariy masalalardan biri sanaladi.

Demak, haqoratni baholashda faqat salbiy mazmunning mavjudligi yetarli emas; uning ifoda shakli, kommunikativ maqsadi hamda shaxs qadr-qimmatiga ta’sir darajasi ham muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, shaxsga qaratilgan har qanday salbiy mazmundagi so‘z yoki ibora emas, balki shaxsning ijtimoiy nufuzini pasaytirishga qaratilgan va axloqiy-me’yoriy chegaralarni buzgan shaklda ifodalangan nutqiy birliklargina haqorat sifatida baholanishi mumkin.

A. Zaliznyak haqorat va kamsitish tushunchalarini taqqoslar ekan, haqorat shaxsning sha’ni va qadr-qimmati kamsitilib, uning subyektiv tuyg‘ular daxlsizligiga tajovuz qilinganda namoyon

bo‘lishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, olimning fikricha, haqorat hodisasida ijtimoiy va individual omillar o‘zaro uzviy bog‘liq holda ishtirok etadi. Ayrim haqoratli murojaatlar muayyan jamiyatning madaniy konteksti va nutqiy an’analari ta’sirida shakllansa, ko‘plab situativ haqoratlarni oldindan bashorat qilish yoki qat’iy tasniflash mushkul[8]. Shu bois haqorat va kamsitish o‘rtasidagi farqlarni aniq mezonlar asosida yoritish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

A. Sannikov baholovchi mezonlar asosida “haqorat” va “kamsitish” tushunchalari o‘rtasidagi farqlarni aniqlaydi. Olimning ta’kidlashicha, “Haqorat nutqiy akt sifatida, avvalo, axloq me’yorlariga rioya qilmaslikda namoyon bo‘ladi. Kamsitish esa shaxsni ijtimoiy yoki huquqiy me’yorlarni buzishda ayblash yoki uning aqliy va jismoniy holatini kamsituvchi iboralar orqali insonning jamiyatdagi qadr-qimmatini pasaytirishni nazarda tutadi”[9]. Ushbu farqlash haqorat va kamsitishning semantik hamda pragmatik jihatlarini aniqroq anglash imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur hodisalar ilmiy adabiyotlarda yanada kengroq – inson maqomini pasaytirishga qaratilgan nutqiy ta’sir sifatida ham talqin qilinadi.

Jahon ilm-fanida haqorat tushunchasi, umuman, inson maqomini pasaytirish g‘oyasi G. Kusov tomonidan shunday ifoda etilgan: “Haqorat bu og‘zaki tajovuz natijasida uning intellektual faoliyatiga ma’nan ta’sir ko‘rsatish orqali so‘zlovchi nutqi qaratilgan shaxs (adresat)ning ijtimoiy maqomini pasaytiradigan illokutsion nutq harakatidir”[10]. A.V.Sannikov ushbu ikki hodisaning psixologik oqibatlariga ham e’tibor qaratadi. Uning fikricha, kamsitish obyekti, odatda, shaxsni ichki chekinishga, uzoq davom etuvchi salbiy emotsional holatni boshdan kechirishga majbur qiluvchi chuqur va barqaror tuyg‘ularni yuzaga keltiradi. Haqorat esa prototipik holatda kuchli affektiv holatni keltirib chiqarib, u ba’zan qasos olish yoki huquqbuzarga qarshi faol javob harakatlarini amalga oshirish istagi bilan namoyon bo‘lishi mumkin.

Bayon etilgan mulohazalar “haqorat” va “kamsitish” tushunchalarining integral va differensial belgilarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu ikki hodisa ham so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxsda yoqimsiz, salbiy emotsional holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, ularning har ikkalasi normativ-huquqiy baholash komponentini ichiga oladi, ya’ni haqorat va kamsitish orqali so‘zlovchi nutq manzilining muayyan me’yorlarga – axloqiy, intellektual, estetik va boshqa ijtimoiy qabul qilingan standartlarga mos kelmasligini bildiradi.

Shu bilan birga, ushbu tushunchalar o‘rtasidagi chegaralar amaliy va huquqiy talqinda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur leksik birliklar o‘rtasidagi farqlar, hatto qonunchilik matnlarida ham to‘liq aniqlashtirilmagan. Biroq huquqiy normalarda haqorat kamsitishning “nomaqbul shakl”da, ochiq va yuqori darajada ifodalangan ko‘rinishi sifatida ta’riflanadi. Shu tariqa subyekt va obyekt o‘rtasidagi kommunikativ yo‘nalish belgilanadi: haqorat ko‘proq nutq egasining subyektiv his-tuyg‘ulariga ta’sir

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lsa, kamsitish esa uning ijtimoiy jihatdan baholanuvchi xatti-harakatlari va kommunikativ niyatiga daxldor hodisa sifatida qayd etiladi.

Haqorat va kamsitish bilan yaqin semantik munosabatda bo‘lgan tushunchalardan yana biri tahqirlashdir. Tahqir (tahqirlamoq, tahqirlash)[11] – xo‘rlash, haqorat qilish va kamsitish ma’nolarini ifoda etuvchi tushunchadir.

Tahqirlash shaxsning qadr-qimmatini kamsitadigan, uni qo‘rqitadigan yoki haqoratlaydigan nomaqbul xulq-atvor yoki harakatlar. U ijtimoiy muhitni keskinlashtirishi, noqulay yoki tahdidli vaziyatni yuzaga keltirishi bilan tavsiflanadi. Masalan, behayo va muayyan shaxsga qaratilgan haqoratli latifalar aytish, kamsituvchi laqablar qo‘yish, nomaqbul jismoniy harakatlar qilish (shilqimlik), insonning diniy yoki milliy mansubligini masxara qilish kabilar shular jumlasidandir. Buning natijasida inson o‘zini xavfsiz his qilmaydi va ruhiy bosim ostida qoladi.

Tahqirlash tushunchasi nutqiy tajovuzning kengroq doirasini qamrab olib, baholovchi munosabatning pragmatik jihatlarini yanada chuqurroq ochib beradi. Tahqirlash “salbiy munosabat”ning kamsitishga nisbatan birozgina yuqori, ammo haqorat (so‘kinish)ga yetmagan darajasidir.

Haqoratli holatlarda so‘zlovchi haqoratli nutqi orqali nafaqat shaxs haqida salbiy ma’lumotlarni yetkazadi, balki unga nisbatan baholovchi munosabatini ham ifoda etadi. Shu tarzda, nutq egasi tinglovchining shaxsiy qadr-qimmatini pasaytirishga intiladi, bu esa uning so‘zlari va xatti-harakatlari orqali adresatda yoqimsiz his-tuyg‘ularni yuzaga keltiradi va xafagarchilikka sabab bo‘ladi. Ushbu xususiyatlarning uyg‘unligi – shaxs haqidagi salbiy mazmun, uning maqomini pasaytirish hamda unga nisbatan dushmanlik yoki salbiy baho ifodalash – baholash ma’nosining o‘ziga xos turini aniqlash imkonini beradi. Shu sababli lingvistik adabiyotlarda bunday holatlarni tahlil qilish uchun “insonni kamsituvchi baholash” tushunchasi qo‘llanadi.

Mazkur yondashuv kamsituvchi baholashning nazariy asoslarini aniqlash zaruratini yuzaga keltiradi. Baholash mezonlari tizimida kamsituvchi baholash ilmiy adabiyotlarda aniqlangan normativ va hissiy baholashlar oraliq o‘rinni egallaydi. Bu masalani tadqiq etgan olimlar qatoriga N. Arutyunova, E. Volf, T. Markelova, V. Teliya, A. Schramm va boshqalar kiradi.

I. Sterninning qayd etishicha, kamsituvchi baholash, bir tomondan, bevosita me’yorga bo‘lgan munosabatning tarkibiy qismini o‘z ichiga oladi. Ya’ni, haqorat qilinganda, “boshqa odamlar unga qanday munosabatda bo‘lishi yoki uning oldida o‘zini tutishi kerakligi to‘g‘risidagi obyektning kutishlariga keskin qarama-qarshilik yuzaga keladi[12]. Ushbu normativ komponent esa baholashning tabiatiga mos keladi.

Mazkur fikr baholashning faqat hissiy emas, balki me’yoriy asosga ham ega ekanini ko‘rsatadi. “Baholash keng va tor ma’noda maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, “yaxshi” degan baho inson

mavjudligi va faoliyatining maqsadi sifatida qabul qilingan makro- yoki mikroqismning ideallashtirilgan modeliga mos kelsa, “yomon” esa uning ushbu modelga mos kelmasligini anglatadi”[13]. Me’yorga rioya qilmaslikni nazarda tutuvchi ijtimoiy-tartibga soluvchi ma’no kamsituvchi baholash semantikasini amalga oshiruvchi nutqlarda yashirin ravishda mavjud bo‘ladi. L. Cherneyko peyorativ aksiologik hukmlarni “ijtimoiy jihatdan xavfli nutq harakatlari” deb ataydi[14].

Shu nuqtayi nazardan, peyorativ aksiologik hukm mazmunini alohida izohlash zarur bo‘ladi. Peyorativ aksiologik hukm ikki qismdan iborat bo‘lib, peyorativ – salbiy, kamsituvchi yoki pastga tushiruvchi ma’noni bildirsa, aksiologik hukm – biror shaxs, hodisa yoki xatti-harakatni yaxshi yoki yomon kabi qarama-qarshi kategoriyalar doirasida tasniflash, ma’qullash yoki “qoralash” nuqtayi nazaridan baholashdir. Shu bois, peyorativ aksiologik hukm deganda, shaxs, uning xatti-harakati yoki hodisani salbiy tarzda baholash va unga nisbatan kamsituvchi, tanqidiy munosabatni ifodalash tushuniladi. Biroq bu tushuncha lingvist-ekspert faoliyatiga nisbatan tatbiq etilmasligi lozim. Uni lingvist-ekspertning ekspertiza tadqiqotlari jarayonida, baholanuvchi materialga nisbatan o‘ta shaxsiy tarzdagi ma’qullashi yoki “qoralashi”, shuningdek, tadqiqot subyektlarini yaxshilik va yomonlik kabi qarama-qarshi mantiqiy kategoriyalar doirasiga ajratishi sifatida tushunmaslik lozim. Chunki lingvist-ekspert tadqiqot materialiga nisbatan neytral, ya’ni, xolis baholovchi munosabatda bo‘ladi. Peyorativ aksiologik hukm so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan salbiy baholovchi hukmini ifoda etadi.

Kamsituvchi baholash, boshqa tomondan, dushmanlik (nafrat, jirkanish) his-tuyg‘ularini ifoda etadi. Unga ko‘ra, so‘zlovchi o‘zini tinglovchi (nutq manzili)dan ustun deb hisoblab, uni intellektual, estetik, hissiy va boshqa jihatlardan yomonroq deb baholaydi. Natijada, so‘zlovchi bilan nutq manzili o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladi, bu esa kamsituvchi baholashning muhim pragmatik belgilaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu haqida E. Molf shunday yozadi: “Eng haqoratli so‘zlar, birinchi navbatda, baholashning hissiy tarkibiy qismini o‘z ichiga oladi: kallavaram, ahmoq! – birinchi navbatda, so‘zlovchining baholash obyektiga bo‘lgan munosabati haqida gapiradi, uning xususiyatlari haqida emas”[15].

Mazkur yondashuv kamsituvchi baholashda hissiy komponentning ustuvor ekanini ko‘rsatadi. Beodob barqaror birliklar hamda ifodalarda nutq manziliga nisbatan salbiy hissiy munosabat ifodalanadi va insonning ijtimoiy maqomining pasayishi bevosita namoyon bo‘ladi. Baholovchi predikat nominatsiyalarida, masalan, telba, ahmoq kabi leksik birliklarda asosiy e’tibor me’yorga rioya qilmaslik semantikasiga qaratilgan bo‘ladi.

Bundan ko‘rinadiki, kamsituvchi baholashning mazmuni matn va nutq vaziyatiga qarab turlicha namoyon bo‘lishi mumkin. Semantika sohasida doimiy harakat, aksiologik shkaladagi siljishlar

hamda ma’lum bir matnda baholovchi ma’noning semantik qayta qurilishi muqarrardir. Shu sababli, har bir aniq matnda hissiy yoki normativ ma’nolar shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsni salbiy tavsiflovchi bahoning lingvistik mohiyati uning shaxs qadr-qimmatini pasaytirishga qaratilgan baholovchi, emotsional va pragmatik mazmunida namoyon bo‘ladi. Bunday baholashda so‘zlovchining adresatga nisbatan salbiy munosabati, uni o‘zidan quyi qo‘yishi va til vositalari orqali uning ijtimoiy yoki shaxsiy maqomini pasaytirishga intilishi asosiy omil hisoblanadi. Shu jihatdan, insonni kamsituvchi baholash nafaqat nominativ birlik, balki kuchli ta’sirchanlikka ega bo‘lgan aksiologik va ijtimoiy-pragmatik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, u tilning shunchaki nominativ emas, balki kuchli aksiologik hamda ijtimoiy-pragmatik xususiyatga ega qatlamini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 6 jildli, 2-jild // Tahrir hay’ati: E.Begimov, A.Hojiyev, A.Madvaliyev, N.Mahmudov, T.Mirzayev, F.Musayeva, Y.Odilov, D.Xudoyberganova. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 324-bet

2. Санников А.В., Плотникова А.М., Кузнецов В.О. Методические рекомендации по назначению и производству лингвистических экспертиз. – М., 2010.

3. Левонтина И.Б. Слово не воробей (О некоторых аспектах судебной лингвистической экспертизы)/ «Общественные науки и современность». 2008, – № 6; Левонтина И.Б., Зализняк А.А., Шмелёв А.Д. Ключевые идеи русской языковой картины мира. – Москва: «Языки славянской культуры», 2005 (2012).

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 6 jildli, 2-jild // Tahrir hay’ati: E.Begimov, A.Hojiyev, A.Madvaliyev, N.Mahmudov, T.Mirzayev, F.Musayeva, Y.Odilov, D.Xudoyberganova. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 324-bet.

5. O‘rozov J. O‘zbek tili lingvokriminalistikasi: monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 130 b.

6. Агилдин В.В. Уголовно-правовая характеристика оскорбления [Электронный ресурс] / В.В. Агилдин. – 2010. (05.05.2014); Агильдин В.В. Уголовное право. Особенная часть (Учебное пособие) // «Преступления против чести и достоинства личности». – Москва: Юстиция: Инфра-М, 2016 (переизд.2018).

7. Бринев К.И. Судебная лингвистическая экспертиза: методология и методика. – М., Флинта: «Наука», 2014 (пер.2016).

8. Левонтина И.Б., Зализняк А.А., Шмелёв А.Д. Ключевые идеи русской языковой картины мира. – Москва: «Языки славянской культуры», 2005 (2012).

9. Санников А.В., Плотникова А.М., Кузнецов В.О. Методические рекомендации по назначению и производству лингвистических экспертиз. – М., 2010.

10. Кусов Г.В. Оскорбление как тип речевого акта: дис. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2004. – 186; С. – 30.

11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 6 jildli, 4-jild // Tahrir hay’ati: E. Begimov, A. Hojiyev, A. Madvaliyev, N. Mahmudov, T. Mirzayev, F. Musayeva, Y. Odilov, D. Xudoyberganova. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. 29-bet.

12. Стернин И.А. О понятии неприличной формы выражения в лингвистической экспертизе // Антропотекст: сб. науч. ст. – Томск: Изд-во Том. ун-та, 2006. – С. 429.

13. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Fakt. – М.: Наука, 1988. – С. 181.

14. Чернейко Л Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Fakt. – М.: Наука, 1988. – С. 181. Чернейко.О. Оценка в значении слова и в тексте // Филологические науки. – М., 1996. – № 2. – С. – 255.

15. Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. – М.: Наука, 1985 [переизд. 2002, 2006, 2009]. – С. 39.